

O'ZBEKCHA-RUSCHA LUG'AT VA MADANIYATLARARO MULOQOT

Yuldasheva Orasta Ravshanbekovna

O'ZRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi

yuldashevaorasta@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17213847>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbekcha-ruscha lug'atning madaniyatlararo muloqotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki tilli lug'atning lingvistik va madaniy jihatlarini, tarjimada frazeologik birliklarni ifodalash yoritilgan. O'zbekcha-ruscha lug'at nafaqat til o'rganishda, balki ikki xalqning madaniy qadriyatlarini bir-biriga yaqinlashtirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar va so'z birikmalari: o'zbekcha-ruscha lug'at, lingvomadaniyat, madaniyatlararo muloqot, tarjima, frazeologik birlik.

Kirish. Til – insonlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim vositasidir. Ammo til orqali faqat so'z almashinuvi emas, balki madaniy ma'no, mentalitet va dunyoqarashlar ham uzatiladi. Shu sababli lug'atlar, xususan tarjima lug'atlari, lingvistik almashinuv va madaniyatlararo muloqot orasidagi muhim bog'lovchi vosita hisoblanadi. O'zbekcha-ruscha lug'at nafaqat leksik ma'nolarni anglashga yordam beradi, balki til va madaniyatlararo ko'priq vazifasini bajaradi.

Asosiy qism. Til – xalqning eng muhim ma'naviy boyligi, milliy tafakkur va madaniyatining ifodasidir. Har qanday tilning boyligi va imkoniyatlarini ko'rsatishda lug'atlar beqiyos ahamiyat kasb etadi. Lug'atchilik esa tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda so'zlarning ma'nosi, qo'llanish doirasi, ularning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Lug'atlarning ma'lum bir xalq hayotida mustahkam o'rin egallashi izoh talab qilmaydigan jarayondir. Bunda xalq ijtimoiy hayotining muayyan bir vaqtda o'zlashtirgan bilimlar xazinasini namoyon bo'ladi. "Lug'atlar ma'lum bir ijtimoiy vazifalar bajarishi, jumladan, o'quvchiga muayyan hodisa yoki holat haqida ma'lumot yetkazishi, uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtirish, tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam berishi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, doimo zamonga hamnafas tarzda takomillashib borishi zarur"¹.

Madaniyatlararo muloqot – turli madaniy kontekstdagi subyektlarning o'zaro muloqoti bo'lib, ular ma'no almashadilar va umumiy tushunishni shakllantiradi. Bu muloqotda birinchi muhim masala — turli madaniy kodlarni aniqlash va to'g'ri talqin qilish. Olamning lisoniy manzarasi tasvirida har bir xalqning dunyoni qay tarzda idrok etishi, uni til orqali qanday ifoda etishi, boshqalardan farqlovchi milliy-madaniy qarashlari, o'zigagina xos tafakkur tarzi kabilarning o'rni, shuningdek, tilda namoyon bo'lgan olam manzarasining umumiy va xususiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Tarjima lug'atlarida har bir xalqning milliy o'ziga xosligi aks etishi lozim. Tarjima jarayonida madaniy kodlarni tarjima qilishda so'z va ma'no mosligi, frazeologik birliklarda esa kontekstual tushunchani ifodalay olish lozim. Madaniyatlararo muloqot – bu nafaqat til orqali, balki madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va dunyoqarash orqali ham amalga oshadigan jarayondir.

Maqolada 1988-yilda S.F.Akobirova va G.N.Mixaylov tahriri ostida nashr qilingan o'zbekcha-ruscha lug'atdagi so'zlar tahlilga tortilgan. Lug'atda **ko'ylak 1** pyбáxa, pyбáшка,

¹ Мадвалиев А. Янги луғатлар яратиш давр тақозоси // О'zbek tili va adabiyoti, 2006. №4. -Б. 16-21.

сарбчка; ... 2 платье (дамское)² ... tarzida soʻzma-soʻz tarjima qilingan, **toʻn** “халат deb tarjima qilingan. Nazarimizda, bu soʻzni tarjima qilmasdan oʻzicha qoldirish kerak, chunki “toʻn” soʻzi obrazli, milliy ruhga ega hamda milliy ruhni koʻrsatish uchun uni toʻgʻridan toʻgʻri “toʻn” deyish hamda izoh berish kifoya. Masalan, тон – национальная верхняя одежда в Узбекистане, напоминающая халат или халат с поясом. Yuqoridagi soʻzlar tarjimasi ikki xil amalga oshirilgan chunki umumiy maʼnodagi ust kiyim – koʻylak barcha xalqlarga xos shu sababdan, soʻzma-soʻz tarjima qilingan. Toʻn esa, milliy ust kiyim boʻlganligi sababli izohli tarjima qilingan.

Lugʻatdagi **choʻgirma** soʻzi больша́я мехова́я ша́пка (*распространённая на западе Узбекистана и в Туркмении*) tarzida tarjima qilingan. Nazarimizda, bu soʻzni ham tarjima qilmasdan milliy ruh koʻrsatish uchun “choʻgirma” deyish hamda izoh keltirish kifoya. Masalan, чугирма – национальный головной убор, сшитый из овчины (шкуры ягнёнка).

Milliy odatlar, narsa-hodisalar faqat xalqning oʻzigagina xos boʻlsa, ular tarjima qilinmaydi, masalan, sari, kimano, mahsi, kavish kabilar³. Lugʻatlarda berilgan maʼnolar soʻzning turli madaniy kontekstlardagi qiyofasini ham bayon etishi lozim. Masalan, “uy” soʻzi oʻzbek tilida faqat binoni anglatmaydi. “Ona uy”, “uy-joy”, “uy-roʻzgʻorli boʻlmoq” iborolari mavjud. Lugʻat, shuningdek, atama, maqol yoki iboraning nutq madaniyatidagi rolini ham koʻrsatishi kerak. Frazologik iboralar, maqollar va idiomatik birliklar ayniqsa muammo tugʻdiradi, chunki ularning toʻgʻri tarjimasi nafaqat tilga, balki madaniy tafakkurga ham bogʻliq. Oʻzbek xalqining obrazli tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, qadriyatlari, feʼl-atvori, eʼtiqod va anʼanalari maqollarda ifodalangan lingvomadaniy kodlarda ham yaqqol koʻzga tashlanadi va oʻz ifodasini topadi. Hatto maqollardagi mavzular oʻxshash boʻlsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvir maqollardagi milliy-madaniy boʻyoqni taʼminlaydi⁴. Shunday ekan, maqollar har bir lingvomadaniyatning milliylikni, oʻziga xosligini koʻrsatuvchi nutq birliklaridir. Shuning uchun ham tilni oʻrganish uchun til sohiblarining madaniyatini ham oʻrganish lozim. **Yomon arava yoʻl buzar, yomon kishi uy buzar** посл. плохая теле́га по́ртит доро́гу, плохой челове́к ру́шит семью maqolidagi “uy buzmoq” iborasi koʻchma maʼnoda *oila va jamiyat tinchligini buzish* maʼnosida qoʻllanilgan. Maqoldagi “uy” – faqatgina imorat emas, balki *oila, roʻzgʻor, mehr-oqibat*, birlik timsolidir. Maqoldagi milliy obrazni saqlab qolish maqsadida izohli tarjima qilingan. Oʻzbek tilida milliylik yaqqol aks etadigan soʻzlar juda ham koʻp. Masalan, “mahalla”, “gap”, “palov”, “doʻppi” yoki marosim nomlarini ham tarjima lugʻatlarida soʻzma-soʻz emas, izohli tarjima qilish, tarjima qilganda shu maʼno-mazmunni bera olish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, urf-odatlari, dini, eʼtiqodi bir-biriga yaqin boʻlmagan xalqlarga muqobil variant topish mushkul vazifa.

Xulosa. Oʻzbekcha-ruscha lugʻatlar madaniyatlararo muloqotda muhim vosita boʻlib, ular soʻzlarni tarjima qilishdan tashqari til, kontekst va madaniyat oʻrtasidagi koʻprik vazifasini bajaradi. Lugʻatlarning turi, strukturası, izoh sistemi va elektron shakllari uning samaradorligini belgilaydi. Hozirgi davrda til texnologiyalari, semantik tahlillar va raqamli

² Ўзбекча-русча луғат / С.Ф.Акобиров ва Г.Н.Михайлов таҳрири остида. – Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1988. 228-бет.

³ Tarjima nazariyasi. Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N. – Toshkent, 2012. – 29-бет.

⁴ Худайберганава Д., Муқимова З. Лингвомаданий кодлар назарияси ва ўзбек халқ мақоллари // Оʻzbek tili va adabiyoti. 2021/№4. 20-23-бетлар.

lugʻat yondashuvlari lugʻatlarni yanada kuchli vositaga aylantirish imkoniyatiga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мадвалиев А. Янги луғатлар яратиш давр тақозоси // O'zbek tili va adabiyoti, 2006. №4. -Б. 16-21.
2. Ўзбекча-русча луғат. С.Ф.Акобирова ва Г.Н.Михайлов таҳрири остида. – Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1988. – 727 б.
3. Худайберганова Д., Муқимова З. Лингвوماданий кодлар назарияси ва ўзбек халқ мақоллари // O'zbek tili va adabiyoti. 2021/№4. 20-23-betlar.
4. Tarjima nazariyasi. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. – Toshkent, 2012. – 215 b.